

USE OF NON-TRADITIONAL METHODS IN TEACHING SPECIALIZED SUBJECTS.

Salikhova Mukhayyo Shakirovna

Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad Al-Khwarizmi

Avulova Fatima Almardon qizi

Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad Al-Khwarizmi

Abstract:

This article studies the importance and effectiveness of non-traditional teaching methods in teaching specialized subjects. Unlike traditional teaching methods, interactive, innovative and independent approaches play an important role in deepening students' knowledge, increasing their interest and forming practical skills. Non-traditional methods include project-based learning and collaborative group work. The article analyzes the advantages of these methods and methods of their implementation in the teaching process.

Keywords: Specialized Disciplines, Non-Traditional Methods, Quality Of Education, Learning Processes, Pedagogical Technologies, Theoretical Knowledge, Project-Based Learning, Knowledge, Teamwork, Critical Thinking, Independent Thinking, Practical Experience.

MUTAXASSISLIK FANLARI O'QITISHDA NOAN'ANAVIY USULLARDAN FOYDALANISH.

Salixova Muxayyo Shakirovna

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Avulova Fotima Almardon qizi

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Anatatsiya:

Ushbu maqolada mutaxassislik fanlarini o'qitishda noan'anaviy ta'lim usullarining ahamiyati va samaradorligi o'rganiladi. An'anaviy ta'lim usullaridan farqli ravishda, interaktiv, innovatsion va mustaqil yondashuvlar talabalar bilimni chuqurlashtirish, qiziqishini oshirish hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Noan'anaviy usullar qatoriga loyihalar asosida ta'lim va guruhda hamkorlik bilan ish olib borish kiradi. Maqolada ushbu metodikalarning afzalliklari, ularni o'qitish jarayoniga tadbqiq etish usullari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mutaxassislik fanlari, noan'anaviy usullar, ta'lim sifati, o'quv jarayonlari, pedagogik texnologiyalar, nazariy bilim, loyiha asosida o'qitish, bilim, jamoaviy ishlash, tanqidiy fikrlash, mustaqil fikrlash, amaliy tajriba.

Hozirgi kunda ta'limda yuz berayotgan islohotlar o'qitish jarayonini zamon talablari asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, mutaxassislik fanlarini o'qitishda an'anaviy usullardan voz kechib, ilg'or, innovatsion va noan'anaviy usullardan samarali foydalanish zarurati ortib bormoqda. Bunday yondashuvlar nafaqat talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Noan'anaviy usullar yordamida o'quv jarayoni interaktiv, ijodiy va samarali tus

oladi. Shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va interfaol metodlarni qo'llash, ta'lim sifatini oshirishga keng imkoniyat yaratadi.

Mazkur ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Yevropa olimlari Silvia Lavado-Anguera, Paloma-Julia Velasco-Quintana, María-José Terrón-López va boshqalar "Project-Based Learning (PBL) as an Experiential Pedagogical Methodology in Engineering Education: A Review of the Literature". PBL'ning muhandislik ta'limida qanday qilib talabalar real-dunyo muammolarini hal qilish orqali, ko'nikmalarini, jamoaviy ish va loyihaviy tajriba orqali o'qishni yaxshilashini tahlil qiladilar. Chunki real-dunyo muammolarini hal etish orqali ko'p bilim va tajribalarga ega bo'lamiz. Mualliflar ta'kidlaganidek, PBL orqali talabalar faqat nazariy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, balki real hayotdagi muammolarni mustaqil ravishda tahlil qilish, jamoada ishlash va amaliy yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bunda, talaba passiv tinglovchi emas, balki loyiha faol ishtirokchisiga aylanadi. Ayniqsa, loyihaviy yondashuv talabalarning tanqidiy fikrlash, mas'uliyat bilan qaror qabul qilish, vaqtni to'g'ri taqsimlash va kommunikativ ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam berishi qayd etilgan.

Mutaxassislik fanlarini o'qitishda noan'anaviy usullar ko'plab imkoniyatlar yaratadi. Ushbu maqolada "Project-Based Learning" (Loyiha asosida o'qitish) metodikalari haqida so'z boradi. Project-Based Learning (Loyiha asosida o'qitish)-bu talabalarning mustaqil ish olib borish, amaliy tajriba orttirish va muammoni hal qilish orqali bilim olishiga asoslangan ta'lim usulidir. Bu metodika talabalarni faollashtirish, ularni jamoa bo'lib ishlashga, muloqot qilishga va innovatsion yechimlarni izlashga undaydi. Loyiha asosida o'qitish metodini qo'llash, nafaqat talabalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlarini ham oshiradi. Bu metodika ustida Amerikalik pedagog-John Dewey, Pedagogik ilmiyotchi-Seymour Paper, O'zbek olimi M.Q.Ergashev kabi qator olimlar ilmiy ishlar olib borgan va samarali ekanligini bir necha bor isbotlab berishgan. Bu metodika afzalliklari shuki:

Ijodiy va mustaqil rivojlantirish: Talabalar loyihalar orqali ijdodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar,

Jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish PBL usuli talabalarga guruh bo'lib ishlash, birgalikda muammo hal qilish va qarorlar qabul qilishni o'rgatadi,

Real hayotda yaqin bilimlar: Loyiha asosida o'qitish talabalarni haqiqiy dunyo muammolariga yechim topishga tayorlaydi, bu esa o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

Talabalarni faollashtirish, talabalar o'zlari loyiha ishlab chiqishda faollashadi, bu esa ta'lim jarayonlarining qiziqarli va samarali bo'lishiga olib keladi.

PBL (Loyiha asosida o'qitish) talabalarga biror loyiha ustida ishlashadi. Loyiha maqsadida erishish uchun kerakli bilimlarni o'rganadilar. Talabalar loyiha bilan ishlash jarayonida ko'proq amaliy ish va kreativlikni rivojlantiradilar. Loyiha yakunida talabalar aniq bir mahsulot yoki xizmat yaratadilar.


Bu maqola shuni anglatadiki "Loyiha asosida o'qitish (PBL) metodikasi ta'lim jarayonida talabalarga amaliy bilimlarni o'rgatishda samarali usul. Ushbu metod talabalarni ko'proq mustaqil fikrlashga, jamoada ishlashga asoslangan.

	Loyiha asosida o'qitish
Imkoniyatlari	Talabalarga o'z qiziqishlari bo'yicha ishlash imkoniyatini beradi.
Afzalliklari	Talabalarga amaliy ish va ijodiy faoliyatni rivojlantirish imkoniyatini beradi.
Kamchiliklari	Katta va murakkab loyihalar uchun ko'p vaqt va resurslar talab etiladi.
Asosiy g'oya	Talabalar biror loyiha ustida ishlashadi, loyiha maqsadiga erishish uchun kerakli bilimlarni o'rganadilar.
Natijalar va baholash	Talabalarning loyihadagi natijalari taqdim etiladi.

Ushbu metodika bo'yicha talabalarning fikr-mulohazalarini aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalari metodikaning samaradorligini baholashga xizmat qiladi.


Sizning fikringizcha, mutaxassislik fanlarini o'qitishda noan'anaviy usullar aysilari samaraliroq deb bilasiz?

17 ОТВЕТОВ




PBL metodidan umumiy qoniqish darajangiz qanday? (1–5 ballik tizimda)

16 ОТВЕТОВ




Ushbu metodika ta'lim jarayonida qo'llanilganda o'zingizda qanday o'zgarish sezdingiz ?

13 ОТВЕТОВ



PBL darslarida ishtirokingizni qanday baholaysiz (past, o'rtacha, yuqori)?

11 ОТВЕТОВ





Ushbu so'rovnima natijalari loyiha asosida o'qitish metodikasining talabalar orasida yuqori samaradorligini ko'rsatadi. Talabalarning ko'pchiligi metodikaning bilimlarni mustahkamlash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishini ta'kidlaydi. Shuningdek, guruhda hamkorlik va faol ishtirok darajasi ham ijobiy baholanadi. Talabalar o'rtasida loyiha asosida o'qitish metodikasining samaradorligini baholash maqsadidagi so'rovnomamiz natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu metodika o'quv jarayonida yuqori darajada ijobiy baholandi.

Loyiha asosida ishlash metodi talabalarga nazariy bilimlarni amalda bajara olish imkoniyatini beradi. Ushbu loyiha asosida ishlash metodi talabalarga o'zlari mustaqil ravishda fikrlashga undaydi, jamoaviy bajariladigan ishlarni jamoa bo'lib ishlashga o'rgatadi. Loyiha asosida o'qitish metodi talabalarga aniq loyihalar ustida ishlashni ko'rsatadi, bu esa talabalarni ko'proq amaliy tajribaga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, loyiha asosida ishlash metodi vaqt va manbalar talab qiladi va ba'zida talabalar orasida tengdoshlikni ta'minlash qiyin bo'lishi mumkin. PBL (loyiha asosida ishlash) metodikasi ta'limni yanada unumli, interaktiv va amaliy tarzda o'zlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A zizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. - T.: C H o'Ipon, 2005
2. Xudayberganov.A.N.,Qalandarova.O'.Y. Texnologik ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun. Toshkent: Bookmany print-2023. 182-bet.
3. Xonboboyev.H. Mutaxassislik fanlari o'itish metodikasi. Magistratura mutaxassisligi magistranlari uchun. Toshkent: Ilm va fan-2023. 97-107.
4. <https://share.google/rLy3FmYSDdEQHvdk0>
5. https://taniqliolimlar.uz/files/O'zbekistonning_taniqli_olimlari_ensiklopediyasi_1-tomi.pdf